

INGLIZ TILI VA RUS TILLARIDA SO‘Z YARATISH JARAYONIDAGI FARQLAR VA O‘XSHASHLIKLAR

Farg‘ona davlat universiteti, rus tili metodikasi o‘qituvchisi

Xamidova Maxbuba Kaharovna

Farg‘ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni

o‘qitish: ingliz tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Muhammedova Dilrabo Farhodjon qizi

muhammedovadilrabo9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va rus tillaridagi so‘z yaratish jarayonining asosiy usullari va ularning o‘zaro o‘xshashliklari hamda farqlarini chuqur tahlil qiladi. Tilshunoslikda derivatsiya (so‘z yasash) yangi leksik birliklarni hosil qilish vositasi sifatida e‘tiborni tortadi. Ingliz va rus tillari o‘ziga xos morfologik tuzilishga ega bo‘lsa-da, lekin ularning har ikkida affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, qisqartma, reduplikatsiya kabi so‘z yasash usullari mavjud. Mazkur maqolada har ikkala tilning morfologik va semantik tizimi kontekstida bu jarayonlar tahlil qilinib, ularning umumiy jihatlari va tilga xos o‘ziga xosliklari ochib beriladi. Maqola til o‘rganuvchilar, filologlar va tarjimonlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: So‘z yasash usullari, ingliz tili, rus tili, derivatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, morfologiya, semantika, leksikologiya.

So‘z yasash – tilning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, yangi so‘z birikmalarini shakllantirish orqali til boyligini yanada oshirishga yordam beradi. Bu jarayon asosan morfologik va semantik qonuniyatlarga asoslanadi. Har bir til o‘zining ichki tuzilishiga, tarixiy rivojlanishiga va muloqot madaniyatiga qarab so‘z yasashining turli usullariga ega. Ingliz va rus tillari strukturaviy jihatdan turlicha bo‘lsa-da, ularning har ikkida so‘z yasashda ba‘zi o‘xshash va farqli jihatlar mavjud.

Rus tili flektiv (egiluvchi) tillar turkumiga kiradi, bunda so‘zlar ko‘plab affikslar orqali yasaladi va morfologik jihatdan murakkab tizimga ega hisoblanadi. Ingliz tili esa analitik til bo‘lib, unda grammatik vazifalar ko‘proq yordamchi so‘zlar va qat‘iy so‘z tartibi orqali ifodalanadi. Shu sababli, ingliz tilidagi so‘z yasash jarayoni sintaktik va semantik vositalarga ham tayangan holda shakllanadi.

Affiksatsiya (qo‘shimchalar yordamida yasash)

Rus tilida, affiksatsiya (prefikslar, suffikslar va postfikslar) eng faol so‘z yasash usulidir. Masalan: читать – читатель – читальня; писать – писатель – писание. Ingliz tilida ham affiksatsiya mavjud, ammo u rus tiliga nisbatan kamroq qo‘llaniladi. Masalan: read – reader – reading; ambitious – unambitious – ambition. Ularning asosiy farqi rus tilida affikslar ko‘proq grammatik vazifani bajaradi, ingliz tilida esa semantik

(mazmuniy) rol ustun bo‘ladi. O‘xshashliklari esa har ikki tilda suffikslar yangi so‘z turkumlarini yasash uchun ishlatiladi.

Kompozitsiya (bir nechta so‘zlardan yangi so‘z yasash)

Rus tilida: пароход (паро + ход); самолёт (само + лет). Ingliz tilida: toothpaste (tooth + paste); smartphone (smart + phone). Ularning farqi ingliz tilida kompozitsiya ko‘proq qo‘llaniladi va birikmalar qisqaroq ko‘rinishda bo‘ladi. Rus tilida esa ko‘proq fonetik o‘zgarishlar bilan birga keladi. O‘xshashligi esa ikkala tilda ham bu usul yangi tushunchalarni ifodalash uchun faol ishlatiladi.

Konversiya (so‘z turkumining o‘zgarishi)

Ingliz tilida bu usul juda keng tarqalgan. Masalan: to work (fe‘l) → a work (ot); to run (fe‘l) → a run (ot). Rus tilida esa bu usul kam qo‘llaniladi, o‘rniga affiksatsiya ustun turadi. Biroq ayrim misollar mavjud: бегать (fe‘l) → бег (ot). Asosiy farqi ingliz tilida konversiya morfologik o‘zgarishsiz sodir bo‘ladi, rus tilida esa bunday o‘zgarishlar odatda affikslar bilan birga kechadi. Lekin ularning ham o‘xshashlik tomonlari bor. Masalan, har ikkala til ham so‘z turkumini o‘zgartirish orqali yangi so‘zlar yasashga qodir.

Ingliz va rus tillarida so‘z yaratish jarayonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala til ham o‘zining tarixiy, morfologik va fonetik tuzilishiga mos holda o‘ziga xos so‘z yasash tizimiga ega. Rus tili flektiv til bo‘lib, unda affiksatsiya (ya‘ni qo‘shimchalar orqali so‘z yasash) asosiy usullardan biri sifatida ajralib turadi. Rus tilida bir so‘zdan ko‘plab yangi so‘zlar hosil qilish mumkin bo‘lib, bunda prefiks, suffiks va postfikslar keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Bu holat rus tilining grammatik jihatdan murakkab, ammo moslashuvchan tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ingliz tili esa analitik til bo‘lib, unda so‘z tartibi va yordamchi so‘zlarning roli muhim. Ingliz tilida affiksatsiya mavjud bo‘lsa-da, u cheklanganroq miqdorda ishlatiladi. Buning o‘rniga konversiya — ya‘ni morfologik o‘zgarishsiz so‘z turkumining o‘zgarishi (masalan, fe‘l → ot) keng tarqalgan. Bu usul ingliz tilida leksik boylikni oshirishda muhim vosita sanaladi. Shuningdek, ingliz tilida reduplikatsiya (so‘z qismlarining takrorlanishi) orqali hosil bo‘lgan so‘zlar tilga yumoristik yoki emotsional rang berishda foydalanilsa, rus tilida bunday holat kamroq uchraydi va asosan ovoq taqlidlovchi so‘zlarda kuzatiladi.

Umuman olganda, so‘z yaratish jarayonidagi o‘xshashliklar shuni ko‘rsatadiki, har ikki til zamonaviy hayot va texnologik taraqqiyot ta‘sirida yangi leksik birliklarni ishlab chiqishda moslashuvchanlik ko‘rsatmoqda. Farqlar esa til tuzilmasining chuqur morfologik va tarixiy ildizlariga borib taqaladi. Til o‘rganuvchilar, tarjimonlar va tilshunoslar uchun bu farq va o‘xshashliklarni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni oshiradi, balki amaliy til kompetensiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarjimada to‘g‘ri va aniq so‘z tanlash, yangi so‘zlarni yaratish yoki tushunishda bu bilimlar juda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бацевич Ф.С. «Основы лингвистики». – Москва: Академия, 2010.
2. Aronoff, M. & Fudeman, K. "What is Morphology?" – Wiley-Blackwell, 2011.
3. Plag, I. "Word-Formation in English." – Cambridge University Press, 2003.
4. Crystal, D. "The Cambridge Encyclopedia of the English Language." – Cambridge University Press, 2010.
5. Русская грамматика. Том 1 и 2. – Москва: Наука, 1980.
6. Интернет-ресурсы: cambridge.org, gramota.ru, oxfordlearnersdictionaries.com

